

TARBIYA JARAYONINING O‘ZIGA XOS XUSIYATLARI VA PEDAGOGIK ASOSLARI

АбдиМухаммедАлиева И. –

Қорақалпоғистон қишлоқ хўжалиги ва агротехнологиялар институти ассистент-ўқитувчиси

Оразбаева Г. –

Нукус ДПИ мустақил изланувчиси

Tarbiya asosan ta'lim berish davrida parallel olib boriladigan pedagogik jarayondir. Bu jarayonda o'qituvchilar ham o'quvchilarning ham ishtirok etadilar. Maktabda o'qituvchi va o'quvchi faoliyatini yahlit qiladigan asosiy jarayon ta'limdir. O'qitish jarayonida bolalarga faqat bilim berilibgina qolmasdan, har bir fan mazmuniga muvofiq tarbiya ham amalga oshiriladi. Bu ta'limning tarbiyalovchi xarakterida batafsil o'rganiladi. Demak, ta'lim va tarbiya yagona jarayondir. Ammo ularni aynan bir jarayon deb o'ylash mumkin emas. Chunki, har birining o'ziga xos xususiyatlari, o'ziga xos belgilari bor. Tarbiya mantiqi, ta'lim mazmunidan farq qiladi. Tarbiyaviy ishlarni amalga oshirish bilan bog'liq faoliyatda o'qituvchi ta'limdagidan farqli o'laroq boshqa vazifani amalga oshiradi. Bu faoliyatning mazmuni ham, shakli ham, metodlari ham ta'limdagidan farq qiladi. Tarbiyaning o'ziga xos xususiyati, ta'limdan farqi nimada?

O'sib kelayotgan yosh avlodni ongli inson qilib tarbiyalashda maktabda olib boriladigan ishlar bilan bir qatorda atrof-muxit ham ta'sir qiladi. Shuning uchun tarbiya ko'p qirrali jarayon. Ta'limda esa o'qituvchi asosiy siymo bo'lib xizmat qiladi. Uning bilim berishga, o'qitish metodlariga, bayonining va vazifalarning mazmuniga hech kim qarshilik qilmaydi.

Tarbiyaviy ishlarda esa muallimning bolalarga ko'rsatadigan tarbiyaviy ta'sirlariga qarshilik ko'rsatadigan turli omillar bo'lib, ularga duch kelgan bola o'qituvchi ko'rsatmasiga zid bo'lgan omillarni o'rganib olishi mumkin.

O'qituvchi tomonidan ayrim fanlar yuzasidan beriladigan ilmiy bilimlarga, masalan, tibbiyot bilimidan: "buyumlar issiqlik vositasi bilan kengayadi, sovuqlikdan torayadi" degan qonunga yoki to'rt amalni bajarish tartibiga, HO_2 formulasiga qarshi oilada ham maktabdan tashqarida ham hech kim zid gapira olmaydi, ya'ni "o'qituvchi noto'g'ri aytadi" deyishga hech kim jur'at eta olmaydi. Tarbiya ishlarida esa "o'qituvchi bekor aytibdi, unday emas, bunday" deb o'rgatuvchilar yoki, masalan: "Seni qara-yu, yana men kattaman deysan papiros chekishdan, so'ramay kompyuter o'yinlariga borishdan qo'rqqasan, qo'rqqoq"- deb bolani yomon yo'lga boshlovchilar ham uchrab turadi. Tarbiyada ana shu kabi qarshiliklarin bartaraf qilish kerak.

Yana shunisi borki maktabdagi tarbiyaga zid bo'lgan ishlarni bola oilada ham ko'radi, ba'zi xollarda ota-onalar bola tarbiyasida pedagogik xatolarga yo'l qo'yadilar. Masalan, mehribon ona bolasiga ortiqcha bino qo'yib, uni taltaytirib yuboradi va erka tanti, o'jar, xudbin qilib o'stiradi. Lekin bizning jamiyatdagi sog'lom tarbiya muxiti bolalarga kuchli ta'sir etadi.

Shuningdek, maktabdagi tarbiyaviy ishlar ham yaxshi yo'lga qo'yilgan bo'lsa, bularning barchasi qo'shilib, tarbiya borasida ayrim oilalarda ota-onalar tomonidan yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni sog'lom oila mikromuhitidagi salbiy ta'sirni bosib ketishi mumkin. Ammo bu kamchilik va illatlarga qarshi albatta kurash olib borish kerak.

Demak, tarbiyaning birinchi xususiyati uning ko'p qirrali jarayon ekanligi bo'lib, unda maktab, oila, jamoatchilik kasaba uyushmalari, kino-teatr, radio, televidenie, adabiyot va san'at ishtirok etadi. Bu bir tomondan tarbiyani yaxshi yo'lga qo'yish imkoniyatini beradi, ikkinchi tomondan, uni murakkablashtiradi, ba'zan salbiy hollar yuzaga kelishiga sabab bo'ladi.

Tarbiya jarayonining xususiyatlaridan yana biri uning uzoq muddat davom etishidir. Buning uchun oylab, yillab ishlash talab etiladi.

Ma'lumki, tarbiya bolaning maktabga kirishidan ancha ilgari boshlanadi. Maktabdagi yillarida va uni tamomlagandan keyin ham butun umr bo'yi davom etadi. Hayot hamma vaqt odamlarni tarbiyalaydi, ular xulqi va xarakteridagi kamchiliklarni tuzatadi yoki qayta tarbiyalaydi. Tarbiya masalasi murakkab, qiyin masala ekanini, u maktab doirasi bilan cheklanib qolmaganligi balki, bolalarni tarbiyalash uchun "turmush

maktabi” ham mavjud. Turmush maktabida odamlar uzluksiz tarbiyalanib boradilar. ”Turmush maktabi”dan katta yoshdagi odamlargina emas, bolalar ham ta’lim oladilar. Turmush maktabining mohir ustozlari hayotning o’zi. Bolalar tevarak-atrofdagi kishilar bilan munosabatda bo’ladilar, ijtimoiy ishlarda qatnashadilar. Turmush tajribalarin orttiradilar.

Tarbiya jarayonida bolalarning o’zlari aktiv ishtirok etadilar, ya’ni ularning o’zlari xulq, qoida normalarini o’zlashtiradilar, o’z o’rtoqlari, jamoa bilan munosabatlarni belgilab oladilar. Agar tarbiyalanuvi sust, bo’shang, faoliyatsiz bo’lsa, har qanday tarbiya ta’siri kuchsiz bo’ladi. Tarbiyachilarning urinishlari yetarli darajada samara bermaydi. Ayniqsa o’quvchi tarbiyachining ta’siriga qarshilik ko’rsatkudek bo’lsa, tarbiya ta’sir kuchi bo’shshib ketadi. Bunday hollarda tarbiyaning vazifasiga bu qarshiliklarni bartaraf etish hamda bolalarda hulq-atvorni kerakli qoida va normalarini o’zlashtirish istagini xosil qilishga yordam beruvchi motivlarni vujudga keltirish zarurati tug’iladi.

Xulosa qilib aytganda, tarbiyaviy ishlar muvaffaqiyatini ko’pgina omillar belagilaydi, bularga ta’limning tarbiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, maktabdagi o’quvchilar bajaradigan ijtimoiy-foydali mehnatni aniqlashtirish, maktab, oila va jamoatchilikning ta’ribiyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, maktabdagi o’quvchilar bajaradigan ijtimoiy foydali mehnatni aniq rejalashtirish, maktab, oila va jamoatchilikning tarbiyaviy ta’sirini markazlashtirish va birlashtirish, maktabda turli xildagi ish formalarini, jumladan, to’garaklarda o’z-o’zini tarbiyalash dasturi doirasida ish olib borish kabi omillardan keng foydalanish muvaffaqiyatning garovidir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Quronov M. O'zbekiston umumiy o'rta ta'lim maktablarida milliy tarbiyaning ilmiy pedagogik asoslari: Ped. fan. dokt. ... diss. – T.: 1998. - 316 b.
2. Mahkamov U. Axloq-odob saboqlari. – T.: Fan, 1994. – 134 b.
3. Mahmudov T. Inson va ma'naviyat //Guliston j. – T.: 1997. 3-son. – 6-8-b.